

## O’SMIRLARDA GENDER STREOTIPLARNING SHAKLLANISH OMILLARI

Raxmatova Zulfiyaxon Alisher qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti Boshlang’ich ta’lim

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19411065>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada gender stereotiplarining o’smir shaxsining shakllanishiga ta’siri zamonaviy psixologik nazariyalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda oila, ta’lim muassasalari va media muhitida shakllanadigan an’anaviy qarashlarning o’smirlar o’z-o’zini baholashi va kasbiy tanloviga ta’siri yoritilgan. Maqola yakunida gender cheklovlaridan xoli muhit yaratish bo’yicha ilmiy tavsiyalar berilgan.

**Аннотация:** В данной статье на основе современных психологических теорий анализируется влияние гендерных стереотипов на процесс формирования личности подростка. В исследовании рассматривается воздействие традиционных взглядов, формирующихся в семье, образовательных учреждениях и медиасреде, на самооценку и профессиональный выбор подростков. В завершении статьи представлены научные рекомендации по созданию психологической среды, свободной от гендерных ограничений, для расширения «зоны ближайшего развития» личности.

**Abstract:** This article analyzes the influence of gender stereotypes on the process of adolescent personality formation based on modern psychological theories. The study examines the impact of traditional perspectives formed within the family, educational institutions, and media environments on adolescents' self-esteem and career choices. The article concludes with scientific recommendations for creating a psychological environment free from gender constraints to expand the “zone of proximal development” of the individual.

**Kalit so’zlar:** Gender stereotiplari, o’smirlik davri, shaxs shakllanishi, ijtimoiy ong, identivlik inqirozi, kognitiv sxema, oilaviy tarbiya, psixologik muhit, o’z-o’ziga berilgan baho, kasb tanlovi.

**Ключевые слова:** гендерные стереотипы, подростковый период, формирование личности, общественное сознание, кризис идентичности, когнитивная схема, семейное воспитание, психологическая среда, самооценка, выбор профессии.

**Keywords:** gender stereotypes, adolescence, personality formation, social consciousness, identity crisis, cognitive schema, family upbringing, psychological environment, self-esteem, career choice

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy bilimlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifa qilib belgilangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib voyaga yetishi — biz uchun eng asosiy vazifadir”. Mazkur maqsadga erishish yo‘lida yoshlar tarbiyasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni, xususan, gender qarashlarining ahamiyatini chuqur o‘rganish talab etiladi. [1; 216-220-bet.] Mazkur strategik maqsadga erishish uchun yoshlar psixologiyasiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni ilmiy jihatdan qilish lozim. Xususan, o’smir shaxsining shakllanishida gender qarashlar va streotiplarning o’rni zamonaviy psixologiya fanining dolzarb yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

O’smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab bosqich bo‘lib, taniqli o‘zbek psixologi E.G‘oziyev ta’kidlaganidek, “bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei tubdan o‘zgaradi va u o‘zining

“men” ligini namoyon qilishga, kattalar dunyosidan o‘z o‘rnini topishga intiladi” [5; 158-bet]. Ushbu intilish jarayonida o‘smirning o‘z jinsiga xos xulq-atvorni egallashi va jamiyatdagi gender ro‘llarini qabul qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Psixolog olim V. Tokareva ham o‘smirlikdagi o‘zgarishlarga to‘xtalib, “o‘smirning o‘z-o‘zini anglashi va qadrlashi bevosita uning ijtimoiy muhitdagi gender stereotiplarini qanday qabul qilishiga bog‘liq” ekanligini qayd etadi [6; 112-bet]. Demak, o‘smir shaxsining shakllanishida gender qarashlar va stereotiplarning o‘rni zamonaviy psixologiya fanining dolzarb yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Gender stereotiplari masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotlarga ko‘ra qat’iy gender stereotiplar o‘smirlarning o‘ziga baho berishi darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Psixolog olim Sandra Bem “Gender sxemasi nazariyasi”ni ilgari surib, jamiyat tomonidan shakllantirilgan tasavvurlar bolalarning o‘zini idrok etishi va xulq-atvoriga ta’sir qilishini asoslab bergan. “Gender sxemasi nazariyasiga ko‘ra, jamiyatdagi stereotiplar bola uchun dunyoni idrok etishda o‘ziga xos “linza” bo‘lib xizmat qiladi. Bu filtr orqali bola qaysi xatti-xarakat uning jinsiga mos kelishini saralab oladi” [3; 355-bet]. Gender sxemalar bolalar uchun nafaqat ma’lumot manbai, balki butun dunyoni filtrllovchi “kognitiv ko‘zoynak” vazifasini o‘taydi. Bola o‘z atrofidagi voqelikni shu sxemalar orqali o‘tkazadi va o‘ziga mos kelmaydigan ma’lumotlarni chetga suradi.

Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi asoschisi Albert Bandura esa bolalar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish va taqlid qilish orqali gender rollarini o‘zlashtirishini ta’kidlaydi. Uning nazariyasi bo‘yicha, bolalar “ijtimoiy modellashtirish” orqali o‘rganadilar. Ya’ni, ota-ona yoki o‘qituvchi aytgan gapidan ko‘ra, ularning kundalik tutumi (masalan, uy ishlarining taqsimlanishi) bola ongiga kuchliroq muhrlanadi. “Bolalar nafaqat kattalarning ko‘rsatmalarini, balki atrofda “modellar” (ota-ona, tengdoshlar) orqali kutilyotgan gender rollarini o‘zlashtiradilar. Stereotipik xulq rag‘batlantirilsa, u shaxs indentivligining qismiga aylanadi”[2; 175-bet]. Uning nazariyasiga ko‘ra, mukofot va jazolash mexanizmlari stereotiplarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Masalan, “o‘g‘il bolalar yig‘lamaydi” degan qarash emotsional ifodani cheklashi yoki “harbiy soha qizlar uchun emas” qabilidagi gaplar qiziqishlarni so‘ndirishi mumkin.

Shaxs rivojlanishi bosqichlarini tadqiq etgan Erik Erikson o‘smirlik davrini “identifikatsiya inqirozi” bosqichi sifatida baholaydi. Bu davrda yoshlar “Men kimman?” degan savolga javob izlaydi. O‘smirlikda “gender identifikatsiyasi” keskinlashadi. Agar o‘smir qiz bola “matematika faqat o‘g‘il bolalar uchun” degan stereotip ta’sirida bo‘lsa, u o‘zining haqiqiy qobiliyatini inkor etadi, jamiyat kutayotgan “standart” obrazga kirishga harakat qiladi. Bu esa ichki nizolarni keltirib chiqaradi. Eriksonning fikricha “O‘smirlikdagi indentivlik inqirozi shunchaki biologik holat emas, balki ijtimoiy rollar to‘qnashuvidir. Stereotiplar o‘smir salohiyatini cheklasa, bu “indentivlik chalkashligi” ga olib keladi.”[4; 163-bet.]

Yuqoridagi nazariyalar shuni ko‘rsatadiki, gender stereotiplari o‘smirning o‘ziga baho berishi, kasb tanlovi va ijtimoiy faolligiga ta’sir qiluvchi muhim omildir. Shu bois oila va ta’lim muassasalarida teng imkoniyat yaratish, stereotiplardan xoli psixologik muhitni shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, gender stereotiplarini ilmiy asosda o‘rganish va ularning salbiy ta’sirini kamaytirish yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta oladigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Gender stereotiplaridan xoli muhit yaratish – bu bolaning “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytirish demakdir. Ya’ni bola “men o‘g‘il bolaman, buni qila olmayman” yoki “men qiz bolaman, bu menga emas” degan to‘siqlarsiz o‘z ustida ishlay oladi. Vigotskiy ta’kidlaganidek “Bolaning rivojlanishi ijtimoiy-madaniy konteks bilan bog‘liq. Agar ta’lim muhiti gender cheklovlaridan xoli bo‘lsa, bolaning “yaqin rivojlanish zonasi” kengayadi va yuqori natijaga erishadi” [7; 86-bet].

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
3. Bem S. L. Gender Schema Theory and Its Implications. – Psychological Review, 1981.
4. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. – New York: Norton, 1968.
5. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi: nazariy-eksperimental tahlil. – Toshkent: "Noshir", 2010.
6. Tokareva V.A. Bolalar psixologiyasi (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: "O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2008.
7. Vygotsky L. S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
8. Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna. (2025). The importance of emotional intelligence in the development of socio-psychological adaptation of adolescents. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 4(6), 148–150. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/3411>
9. Zulfiya Alisherova O’smirlarning o‘zaro munosabatlaridagi muloqot jarayonida emotsional intellektni o‘rni. (2025). *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 2(4.2), 544-546. <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/91947>
10. Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi Sun’iy intellekt – bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari ta’limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida. (2025). *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, 3(6). <https://doi.org/10.5281/zenodo.15779871>